



## ILK BOLALIKDAGI O'SISH DAVRINING ASOSIY FIZIOLOGIK VA PSIXOLOGIK OMILLARI.

*JDPI tabiy fanlar fakulteti*

*Zoologiya va anatomiya kafedrası st-o'qituvchisi*

**K. Abrorova**

**Annotatsiya:** *O'sib kelayotgan avlodning har tomonlama sog'lom bo'lishi uchun bolalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish juda muhim vazifalardan biri sanaladi. Hozirgi zamon psixologiya, pedagogika, sosiologiya va boshqa fanlarning aniqlashicha insonlarning aql-idrokining 40 % ni uch yoshgacha bo'lgan davr ichida qolgan 60% ni hayotining keyingi yillarida shakllanar ekan.*

**Abstract:** *In order for the growing generation to be healthy in all aspects, forming a healthy lifestyle in children is considered one of the most important tasks. According to modern psychology, pedagogy, sociology and other sciences, 40% of people's intelligence is under the age of three. while the remaining 60% is formed in the later years of his life.*

**Аннотация:** *Для того чтобы подрастающее поколение было здоровым во всех отношениях, формирование здорового образа жизни у детей считается одной из важнейших задач. По данным современной психологии, педагогики, социологии и других наук, 40% интеллекта людей находится под контролем. возрасте трех лет, а остальные 60% формируются в последующие годы жизни.*

Salomatlik odamning biologik, aqliy, ruhiy, jismoniy holatlari va mehnat faoliyatining muvozanatlashgan birligi bo'lib salomatlik – ijtimoiy boylikdir. Shu sababdan bolalar sog'lig'ini muhofaza qilish va mustahkamlash muammosi maktabgacha tarbiya muassasalari bilan oilaning hamkorlikda olib boriladigan muhim vazifalaridan bo'lib qolmoqda.

M.Usmonov o'zining "Donishmadlar oila haqida" nomli kitobida bola tarbiyasi muhim masala ekanligini takidlab "Oilaviy doirada bola ongida paydo bo'lgan hamma narsa uning butun umri davomida saqlanib qoladi. Oilada qurilgan mustahkam axloqiy poydevor jamiyat tomonidan kelajakning yetuk insonini tarbiyalash asosidir. Bolalarni tarbiyalash maktab o'qituvchisi va tarbiyachining ishi deb hisoblaydigan ota – onalar katta xato qiladilar" degan edi.

Zero bola tarbiyasini faqatgina tarbiyachi va o'qituvchigina emas ota-ona, qarindosh-urug', mahalla-kuy hamkorlikda olib borilsa ko'zlangan maqsadga erishiladi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Yuksak Manaviyat - Yengilmas Kuch" asarida keltirilgan quyidagi so'zlar ham bizlarni kelajak avlodning tarbiyasiga befarq bo'lmaslikka davat etadi "... Har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rish zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish- ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi



va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lim tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi"

O'sib kelayotgan avlodning har tomonlama sog'lom bo'lishi uchun bolalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish juda muhim vazifalardan biri sanaladi. Hozirgi zamon psixologiya, pedagogika, sosiologiya va boshqa fanlarning aniqlashicha insonlarning aql-idrokining 40 % ni uch yoshgacha bo'lgan davr ichida qolgan 60% ni hayotining keyingi yillarida shakllanar ekan.

Bolalarning birinchi 3 yillik hayoti nihoyatda muhim, chunki bu davrda shaxsga xos sifatlari, tengdoshlari va kattalarga bo'lgan munosabati, uni qurshab olgan olamdagi voqea-hodisalarga munosabati shakllanadi. Ana shu munosabatlarga nisbatan bolani fikrini salbiy yoki ijobiy bo'lishi turmush tarzi bilan belgilanadi. Psixolog, pedagoglarning aniqlashicha 2-3 yoshdagi bolalar ota-onasi, buvisi, buvasi, va boshqa qarindosh bo'lmagan odamlarga o'rtacha 5 mln ga yaqin savol berishar ekan. Har bir bolaning bilishga qiziqishiga qarab bu savollar ko'rsatkichi 3-7 mln oralig'ida bo'lishi mumkin.

Analiz natijalariga qaraganda savollarning barchasi favqulodda bo'lib, keraksizi yo'q. Hammasi ham muhim. Agar bolaning hamma savollariga bamaylihotir, to'g'ri, mehribonlik va sabr-toqat bilan biror marta ham uning ezmaligidan qochmay javob berilsa, u holda ancha foydali xususiyatlarga erishdik deb hisoblashimiz mumkin.

Bolalarning yoshlik davrida agar uning tarbiyasi borasida ko'p narsani yo'qotsak keyin uning o'rnini to'ldirishni imkoniyati bo'lmaydi. Aslida 3 yil davomida bola muomalada kattalardan juda ko'p narsalarni ololmay qoladi. Intelektual rivojlanishning shaklanishi, uning potensial imkoniyatlariga to'g'ri kelmay, bola bu jihatdan kerakli darajada rivojlanmay qoladi. Ayniqsa hozirgi Fan va Texnikaning rivollangan davrida o'sib ulg'ayayotgan bolalarning ko'pchiligi hali o'zligini anglamay turib telefonga tikilgani, soatlab vaqtini televizor qarshisida, kompyuterdagi bemano o'yinlarni o'ynab umrini sarf etayotgani natijasida ularning ko'zlarida kasallik, tanasida tuz, ongida esa beparvolik yig'ilib borishiga sabab bo'lmoqda. Shunday salbiy holatlarni oldini olishimiz uchun esa bolalarni yoshligidanoq bo'sh vaqtini foydali ishga sarflashni o'rgatishimiz, ularning bizga qo'yayotgan talablariga loqaydlik qilmasdan javob qaytara olishimiz kerak.

Hukumatimiz tomonidan kelajak avlodning ertasiga e'tibor berilib, ishlaydigan bolali ayollarga tug'riqdan oldingi va keyingi to'liq haq to'lanadigan ta'til 126 kunga uzaytirildi. Bolali onalar bolasi 3 yoshga kirguncha ish o'rnini saqlangan holda ta'til olishi va pul bilan taminlanishi qonunda belgilab qo'yildi.

Bolalar bog'chasi ishlarini yaxshilashga qaratilgan qator chora tadbirlar belgilab qo'yildi. Bu borada muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning matbuotda e'lon qilingan "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorida ham yetti yoshgacha bo'lgan bolalar ta'lim tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi muassasalarning texnik ta'minotini yanada yaxshilash va pedagoglarning ilmiy salohiyatini yanada takomillashtirish chora tadbirlari ishlab chiqilgan.

Shunday qilib har tomonlama yetuk, sog'lom va yuqori intellektual darajadagi bolalar voyaga yetkazish shu bilan birga bolalarda uchraydigan salbiy odatlarni kamaytirish va unga butunlay barham berish choralari belgilandi.



Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki kelajak avlodning taqdiriga befarq bo'lmasdan bolaning qanday yoshda bo'lishlaridan qat'i nazar biz kattalarga beradigan savollariga to'liq va to'g'ri javob berishimiz ularning ongini to'g'ri shakllanishida hamda jamiyatimiz uchun foyda keltiradigan inson bo'lib yetishishida muhim ahamiyatga ega ekanligini unutmashimiz kerak.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qodirov E.Q. Odam anatomiyasi. Lotin.Toshkent. -Universitet. 2007, 276 bet.
2. Алексеев В.Н., Садков В.И., Мартынова Е.Б., Медведникова Т.Н.”Диагностические исследования и лечебные манипуляции при глазной патологии”. 2000.
3. Abdullaeva Sh.A., Axatova D.A., Sobirov B.B., Sitov S.S. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi «Fan» nashriyoti..
4. Ishmuhammedov R.J. “Inovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samadorligini oshirish yo'llari” Toshkent. 2004 y.
5. Ta'lim taraqqiyoti umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi, «Sharq nashriyoti, matbaa konserni». 1999 yil 3-son.